



TILSHUNOSLIKDA PARAFRAZALARNING TADQIQI

Utegenova O'g'iloy Pardavayevna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich tayanch doktorant talabasi

utegenovaugiloy@gmail.com

ANNOTATSIYA Maqolada parafrazalarning tilshunoslikda, o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, matnda nutq vaziyati va subyekt, obyekt omillari bilan bog'lanib kelishi, dunyo tilshunosligida parafrasa pragmatik aspektda tahlil qilinishi ilmiy yoritilgan. Bundan tashqari olimlar tomonidan parafrazaga yondosh birlik- frazemadan farqli jihatlari ko'rsatilgan. Mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratilgan va badiiy asardan namuna keltirilgan. Parafrazaning antroposentrik aspektda o'rganilishi, matn bilan bog'liq holda tahlili ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: parafrasa, pragmatik aspekt, nutq vaziyati, subyekt, lingvistika, antroposentrik paradigma, omili, frazema, matn, til birligi, nutq birligi, baholovchi, obrazli ma'lumot beruvchi tur.

ABSTRACT The article examines the paraphrases in the world linguistics and Uzbek linguistics. According to main source of investigation, there is given textual periphrase which related to novel and plays. The scientists investigated periphrases as pragmatic aspect in the world. Furthermore periphrases are different from idioms by some scientists. The periphrases which including the text are showed in the article.

Keywords: periphrases, linguistics, pragmatic aspect, parole, idioms, antroposentric approach, figurative, informing, assessorial types of periphrases.

KIRISH

Bugungi kunda tilga bo'lgan munosabat, qarash avvalgilardan keskin farq qiladi. Insonni o'rab turgan olam va kishilarning subyektiv yondashuvi, tilni antroposentrik aspektda o'rganish bugungi kunning dolzarblik kasb etuvchi vazifasidir. Insonning idroki, tasavvuri, xotirasida qayta jonlanuvchi kognitiv bilimlar, albatta tilda aks etadi. So'zning turlicha uslubda ifodalanishi qadim-qadimdan ma'lum va mashhur bo'lib kelgan. Stilistik vosita sifatida oddiy so'zdan ta'sirliroq, mazmuniga ko'ra turli nomlarning ikkilamchi atash nomi sifatida yuzaga kelgan. Ular ifoda xususiyatiga ko'ra ma'lumot beruvchi, baholovchi, badiiylashtiruvchi ko'rinishlarda matnlarda so'z yoki jumla ko'rinishida uchraydi. Parafrazalar insoniyatning so'zni badiiylashtirgan, takomillashtirgan mahsulining uslubiy ko'rinishidir. Ba'zi olimlar

ta’kidlashicha, parafraza til birliklari va nutq birliklari sifatida qabul qilingan. Parafrazalar jamiyatning barcha jabhasida mavjud va o‘z o‘rniga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligida ilk bor antik davrda Bibliyada tasviriy ifodalar (**parafrazalar**) uchraydi ammo termin sifatida keyingi milodiy yillarda atamasi doirasida o‘rganilgan va tadqiq qilingan (Aristotel, Kvintilian)²⁴¹. Parafraza turlicha paradigmalarga asoslanib o‘rganilgan. “Y.Y.Cherednichenko, I.V.Arnold, M.P.Brandes, I.R.Galperin, I.B.Golub, V. P. Moskvina, Y.M.Skrebnev, V.N.Teliya, V.G.Gak perifrasiyani stilistik uslub sifatida, D.O.Dobrovolskiy, E.S.Kubryakova lingvistik-semantik jihatdan, N.D.Arutyunova, T.V.Bulgina, E.V.Paducheva esa tasviriy ifodani lingvopragmatika sifatida tadqiq qiladi”²⁴². Tilshunoslarning tasviriy ifodaga turlicha ta’rif beradi. Perifraza-bir so‘z, so‘z birikmasi yoki gap o‘rnida kelib, narsa yoki hodisaning farqli belgisini ifodalovchi pragmatik vosita. Badiiy matnda so‘zni bezovchi, baholovchi, ma’lumot beruvchi va efemistik vazifalarda ifodalanadi. Har bir vazifasiga alohida to‘xtalib, unga doir misollar keltiriladi. “Rus tilshunosligida XVIII-XIX asrlarda tasviriy ifoda haqida an’anaviy qarash mavjud bo‘lgan, tilni bezovchi vosita sifatida deb yondashgan olimlar Л.М.Ломоносов, А.С.Николский, И.С.Рижеский, А.Серебрянников, А.Н.Могилевский, В.С.Подшивалов, И.В.Дал, ikkilamchi nom sifatida qaragan olimlar А.И.Галич, А.А.Потебня”²⁴³. tadqiqotchilar parafrazalarni turli tomondan tasniflaydi. Unga ko‘ra grammatik, komponent tuzilishi, yasalishi, nominativ birlik sifatida, kontakt bog‘lanishi, voqea-hodisalarni o‘ziga xos nomlashiga ko‘ra tasniflaydi. Unga doir misol ham keltiradi. Yerning yo‘ldoshi (спутник земли), moviy oltin (голубое золото). Bundan tashqari parafraza avvalo, frazeologik birliklardan farqli va o‘xshash jihatlari ilmiy yoritilgan. parafrazalarni semantik-struktur modeli o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas deb ko‘rsatiladi²⁴⁴. Unga doir misollar keltiradi. Город греха (Лас-Вегас), город любви (Париж), город миллионеров (Баден-Баден), город металлургов (Вологда), город мостов (Санкт-Петербург) va boshqalar. Yuqoridagi misollar geografik hudud misolida ko‘rilgan. Har bir millatda bu turlicha ikkilamchi nom bilan atalishi mumkin. O‘zbeklarda kon shahri-**Olmalik**, non shahri-**Toshkent**, gullar shahri-**Namangan**, usti ochiq muzey sifatida-**Xiva**, hunarmandlar yurti-**Marg‘ilon** nazarda tutiladi. Olim bu birlikning tuzilishini erkin otli birikmalar misolida tahlil qiladi. Город +существительное в р.п (shahar+ot qaratqich kelishikda) kabi. Umuman olganda tuzilishi, qaysi kelishikda kelishi, matn bilan bog‘langan yoki bog‘lanmaganligiga ko‘ra izchil tahlil qilingan. Yana bir tadqiqotchi С.М.Александровна tasviriy ifodalarni semantik-pragmatik

²⁴¹ Лыскова.Т.В “Субстантивные перифразы в современном публицистическом дискурсе” диссертации кандидата филологических наук. Киров 2012 –с 9

²⁴² Чередниченко “Типы перифраз в художественном тексте” автореферат, Воронеж 2016 –с 4

²⁴³ Викторова Л.Т “Субстантивные перифразы в современном публицистическом дискурсе” диссертации кандидата филологических наук, Киров 2012 –с 9

²⁴⁴ Викторова Л.Т “Субстантивные перифразы в современном публицистическом дискурсе” автореферат. Киров 2012 –с 11

aspektda o‘rgangan va ilmiy asoslagan. Unga ko‘ra parafrazalar (tasviriy ifodalar) umumtil va muallifga oid turlarga bo‘linadi. Ikkilamchi nom sifatida esa uch turga bo‘lingan²⁴⁵:

1. Ma’lumot beruvchi perifrazalar
2. Qayta nomlovchi perifrazalar
3. Efemistik perifrazalar

Shuni aytish joizki, uning kuzatishlarida frazeologik tasviriy ifodalarni uchratmaymiz. Matn bilan bog‘langanligi jihatidan ikki turga: distant va kontaktga ajratadi. Distant bog‘langan tasviriy ifodalarning o‘zi ikki tur: konteks bilan bog‘langan, sintaktik jihatdan bog‘langan ya’ni, bizningcha, matn ichidagina kelib, xalq mulkiga aylanmagan tasviriy ifoda, sintaktik esa so‘z birikmasidan tashkil topgan har qanday tasviriy ifoda. Ekspressiv-stilistik ma’no beruvchi tasviriy ifodalar uch turga bo‘lingan:

1. Emotsio(ruhiyat bilan bog‘liq)
2. Baholovchi
3. Obrazli

Muallif gazeta va jurnallardan gaplar keltirib, yuqoridagilarni dalillagan. Masalan, A.S.Pushkin asarlaridan quydagilar keltirilgan: *спящие вершины горы*(uxlayotgan cho‘qqi)-tog‘lar, *“Кавказ аsiri”* asaridan, *темная глубина –море* (tubsiz chuqurlik) dengiz *“Vadim”* asari, *зыбкое стекло* (titrab turgan oyna) suv *“Bog‘cha saroy fontani”* kabi asarlardan namunalar keltiradi. Olima parafraza va iboraning farqli jihatini aniq, asosli ilmiy yoritib beradi.

1. Perifraza ikkilamchi nominativ realiya, ibora subyekt uchun tayyor material
2. Perifraza matn orqali tahlil qilinsa, ibora matnsiz ham tushuniladi
3. Strukturasiga ko‘ra erkin, ibora esa komponent tarkibdan iborat²⁴⁶.

Umuman olganda, muallif tomonidan tasviriy ifodalar pragmatik aspekt sifatida o‘rganilgan. Nutqning bilvosita ifodalanishi, matnda mazmuni aniq namoyon bo‘lishini keltirib o‘tadi. Bizningcha, parafrazalar pragmatika fanining obyekti, ya’ni nutqning o‘xshatish asosida yuzaga kelgan yashirin nutq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ko‘p hollarda parafrazaning ma’nosi yonma-yon kelmaydi. Tinglovchi, kitobxondan zakovat, mushohada, zehn talab qilinadi, albatta, lisoniy qobiliyat egasi bo‘lish zarur. Bundan tashqari, konteks bilan bog‘lab o‘rganish, nutq vaziyati, nutq subyekti, nutq obyekti pragmatikaning asosini tashkil etadi. Yana bir tilshunos E.E.Vladimirovna parafrazalarni gazeta va jurnal diskursida pragmatik, lingvokulturologik aspektda o‘rgangan, izohlagan²⁴⁷. Ingliz tilida yozilgan jurnal, maqoladan namunalar keltiradi. Zamonaviy ingliz gazetalarida diskurs, pragmalingvistik aspektda ifodalangan tasviriy ifodalarni besh turga ajratadi.

²⁴⁵ Александровна С.М “Перифраз как экспрессивно средство языка газеты” диссертации кандидата филологических наук. Челябинск, 2007 –с 9

²⁴⁶ Александровна С. М “Перифраз как экспрессивно средство языка газеты” автореферат Челябинск, 2007 –с 13


²⁴⁷ Владимировна Е.Е “прагматический и лингвокультурологический аспекты перифраз и сходных стилистических приемов в газетно-журнальном дискурсе” автореферат. Иркутск-2008 –с 6

1. Hukmli-perifraza (перифразы –осуждения) bunga doir misol keltiradi. Earth’s number one predator(USA)-yerning birinchi raqamli yirtqichi(AQSH),state-sponsored murderer(USA)-shtatlar homiy qotili(AQSH),the most powerful bully pulpit in the world(USA)-dunyodagi eng kuchli bezori minbar (AQSh). Birgina davlatni turli tasviriy ifodalar misolida keltiradi.

2. Ijobiy-perifraza(перифразы-одобрение) a land of believers(AQSH)-ishonuvchilarning yeri, the main driver of the EU’s foreign policy (Germany)-Yevropaning xorijiy siyosatini asosiy yurguzuvchisi (Germaniya), the treasure that the rest of world envies (Democrats of the Western countries)-dunyoning qolgan qismidagi xazinalariga ko‘z tikuvchilar (G‘arb davlatlari)

3. Ayblovchi-perifraza (перифразы-обвинения) the world’s most dangerous men – dunyoning eng xavfli kishilari (tolibonlar).

Umuman olganda shuni aytish joizki, parafrazalar jahon tilshunosligida matn referensiyasi, nutq momenti,pragmatik aspektda o‘rganilgan va tadqiq qilingan. Tilshunoslikda nafaqat pragmatikaning obykti sifatida balki lingvokulturologik jihatdan ham ilmiy, asosli misollar orqali o‘rganilgan. Parafraza frazemalarga tuzilish jihatidan o‘xshasada, mazmun jihatdan farq qilishi olimlar tomonidan dalillar bilan ilmiy asoslab berilgan. O‘zbek tilshunosligida ilk bor parafrazani monografik planda o‘rgangan tilshunos I.Umirov va H.Shamsiddinovlardir. I.Umirov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida parafrazalarni izohlagan, iboradan ma’nosiga ko‘ra farqlab ilmiy asoslagan. H. SHamsiddinov “O‘zbek tilida perifrazalar xususida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida parafrazalarni matn bilan bog‘lab tahlil qiladi. Bundan tashqari D. Aytboyevning parafrazalarga oid nomzodlik dissertatsiyasida birgina so‘z parafraza bo‘lmasligi, kamida tasviriy vosita bo‘lishi uchun ikkidan ortiq so‘z bo‘lishini ta’kidlaydi. Bizningcha, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. So‘z, so‘z birikmasi hatto gap ko‘rinishda ham parafrazalar matnda uchrashi mumkin. Masalan, Alloh so‘zining parafrazalarini keltirish mumkin.



Muhokama va natijalar.

ilshunoslikda parafrazalar o‘z o‘rniga va salmog‘iga ega bo‘lib, obrazlilik, emotsional-ekspressivlikni taminlovchi vositalardan biridir. Ular badiiy, publitsistik,so‘zlashuv uslublarida

faol qo‘llanuvchi til va nutq birliklaridir. Matn orqali tahlil qilinadigan parafrazalarni nutq birligi, matnsiz ham tushunish mumkin bo‘lgan parafrazalar til birligiga aylangan tasviriy vositalardir. Badiiy matnda yozuvchining kognitiv salohiyati, kitobxonga qay darajada aniq yoki mavhum tarzda ifoda etishi uning lisoniy va til bilish malakasiga bog‘liq. Har bir millat o‘z mentaliteti doirasidan chiqmagan tarzda so‘zni badiiylashtiradi yoki o‘xshatadi.

Xulosa

O‘zbek tilshunosligida parafrazalar kognitiv tomondan yoritilishi, nutq vaziyati bilan bog‘liq holda matnni tahlil qilish pragmatika fanining hamda lingvokulturologiya fanining asosiy vazifasi deyish mumkin. Chunki har qanday matnda shu millat vakillarining holati, dunyoqarashi, urf-odati aks etadi. Bundan tashqari parafrazalar o‘xshatish asosida yuzaga kelar ekan, u xalqning kognitiv bilimini ko‘rsatuvchi qayta nomlanuvchi so‘zdir.

REFERENCES

1. Shamsiddinov H “Perifrazalar xususida ayrim mulohazalar” maqola O‘TA 1993-yil, -B 35-36.
2. Umirov I “ O‘zbek tili parafrazalari” nomzodlik disser. 1996-yil. –B17-23.
3. Umirov I va Rasulov R “O‘zbek tilida parafrazalarning izohli lug‘ati” Toshkent 1996-yil. –B 32
4. Евдокимова Е.В “Прагматический и лингвокультурологический аспекты перифраз и сходных стилистических приемов в газетно-журнальном дискурсе” автореферат Иркутск-2008. –с 9-10
5. Спривля М.А “Перифраз как экспрессивно средство языка газеты” автореферат. Челябинск-2007. –с 7-8